DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojss-06-11-01 **Pages: 1-11**

Oriental Journal of Social Sciences

ORIENTAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES

journal homepage:
https://www.supportscience.uz/index.php/ojss

PROSPECTS AND MECHANISMS FOR ENHANCING THE CONCEPT OF NATIONAL CULTURAL ADVANCEMENT IN NEW UZBEKISTAN

Sadoqat Primovna Uzbekova
Researcher at Tashkent State Transport University
uzbekova_sadoqat@tstu.uz
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: New Uzbekistan, national culture, cultural advancement, national identity, historical memory, cultural policy, cultural heritage, creative economy.

Received: 02.11.2026
Accepted: 03.11.2026
Published: 04.11.2026

Abstract: This article analyzes the prospects for the concept of national cultural advancement in "New Uzbekistan," as well as the ideological-conceptual foundations and the refinement of the organizational-legal mechanisms for its implementation. State policy regarding the development of national culture is examined based on the Constitution of the Republic of Uzbekistan, relevant normative-legal acts concerning the development of national culture, and new initiatives within the cultural sphere. The preservation of cultural heritage, the strengthening of national identity, the realization of creative potential, the expansion of access to cultural services, and the promotion of national culture on an international scale are presented as interconnected processes. The author proposes a conceptual model for evaluating national cultural advancement, based on criteria such as historical memory, cultural participation, creative innovation, regional equity, and international cultural dialogue.

YANGI O‘ZBEKISTONDA MILLIY MADANIY YUKSALISH KONSEPSIYASINING ISTIQBOLLARI VA TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI

Sadoqat Primovna Uzbekova
Toshkent davlat transport universiteti tadqiqotchisi
E-mail: uzbekova_sadoqat@tstu.uz
Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, milliy madaniyat, madaniy yuksalish, milliy o‘zlik,

Annotatsiya: Maqolada Yangi O‘zbekistonda milliy madaniy yuksalish

tarixiy xotira, madaniy siyosat, madaniy meros, ijodiy iqtisodiyot.

konsepsiyasining istiqbollari, uni amalga oshirishning g‘oyaviy-konseptual asoslari hamda tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Milliy madaniyatni rivojlantirishga doir davlat siyosati O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, milliy madaniyatni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlashga oid normativ-huquqiy hujjatlar va madaniyat sohasidagi yangi tashabbuslar asosida o‘rganiladi. Madaniy merosni asrash, milliy o‘zlikni mustahkamlash, ijodiy salohiyatni ro‘yobga chiqarish, madaniy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va milliy madaniyatni xalqaro miqyosda targ‘ib etish o‘zaro bog‘liq jarayonlar sifatida yoritiladi. Muallif tomonidan milliy madaniy yuksalishni baholash uchun tarixiy xotira, madaniy ishtirok, ijodiy innovatsiya, hududiy tenglik va xalqaro madaniy muloqot mezonlariga asoslangan konseptual model taklif etiladi.

ПЕРСПЕКТИВЫ И МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ КОНЦЕПЦИИ НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНОГО РАЗВИТИЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Садокат Примовна Узбекова
Исследователь в Ташкентском государственном транспортном университете
uzbekova_sadoqat@tstu.uz
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Новый Узбекистан, национальная культура, развитие культуры, национальная идентичность, историческая память, культурная политика, культурное наследие, креативная экономика.

Аннотация: В статье анализируются перспективы концепции развития национальной культуры в «Новом Узбекистане», а также идеологическо-концептуальные основы и совершенствование организационно-правовых механизмов её реализации. Государственная политика в сфере развития национальной культуры рассматривается на основе Конституции Республики Узбекистан, соответствующих нормативно-правовых актов и новых инициатив в культурной области. Сохранение культурного наследия, укрепление национальной идентичности, реализация творческого потенциала, расширение доступа к культурным услугам и продвижение национальной культуры на

международной арене представлены как взаимосвязанные процессы. Автор предлагает концептуальную модель оценки развития национальной культуры, основанную на таких критериях, как историческая память, участие в культурной жизни, творческие инновации, региональное равенство и международный культурный диалог.

Kirish. Globallashuv, raqamli kommunikatsiyalar va xalqaro madaniy almashinuv jadallashgan hozirgi davrda milliy madaniyatni rivojlantirish masalasi faqat tarixiy merosni saqlash yoki san’at muassasalari faoliyatini kengaytirish bilan cheklanmaydi. U jamiyatning o‘z tarixini anglash darajasi, milliy o‘zlikni idrok etishi, ijodiy salohiyatni ro‘yobga chiqarishi va umuminsoniy madaniy makonda munosib ishtirok etishi bilan chambarchas bog‘liq. Shu sababli milliy madaniy yuksalish konsepsiyasini istiqbolda takomillashtirishda madaniyatning tarixiy, ma’naviy, ijtimoiy, iqtisodiy va xalqaro aloqalar bilan bog‘liq jihatlarini yagona tizim doirasida ko‘rib chiqish zarur.

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yilgi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi 61-moddasida fuqarolarning O‘zbekiston xalqining tarixiy, ma’naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosini asrab-avaylashi shartligi, ushbu meros davlat tomonidan muhofaza qilinishi belgilangan [1;61-modda]. Ushbu norma milliy madaniyatni rivojlantirishning konstitutsiyaviy asosini ifodalaydi. Uning mazmunidan kelib chiqib, madaniy merosni muhofaza qilish davlat organlarining vazifasigina emas, balki fuqarolarning ijtimoiy mas’uliyati va avlodlar davomiyligini ta’minlash bilan bog‘liq umumiy majburiyat ekanini anglash mumkin.

Milliy madaniyatni rivojlantirish siyosatida 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son qaror bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi hamda 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son Farmon muhim o‘rin tutadi. PF-6000-son Farmonda milliy madaniyatni rivojlantirish, moddiy va nomoddiy madaniy merosni saqlash va targ‘ib etish, madaniyat sohasini innovatsion rivojlantirish va mamlakatning jahon madaniy makoniga integratsiyalashuvini kuchaytirish masalalari belgilangan [2; 1-band va tegishli ilovalar]. Mazkur hujjatlar madaniy siyosatni alohida tadbirlar yig‘indisi sifatida emas, balki maqsad, vazifa, amalga oshirish mexanizmi va natijadorlik ko‘rsatkichlariga ega tizim sifatida shakllantirishga yo‘naltirilgan.

Maqolaning dolzarbligi milliy madaniyatni rivojlantirishga oid huquqiy va tashkiliy chora-tadbirlarni g‘oyaviy-konseptual jihatdan umumlashtirish, mavjud imkoniyatlarni uzoq muddatli istiqbollar bilan bog‘lash va ularni baholashning aniq mezonlarini taklif etish zarurati bilan

belgilanadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi Yangi O‘zbekistonda milliy madaniy yuksalish konsepsiyasini takomillashtirishning istiqbolli yo‘nalishlari va amalga oshirish mexanizmlarini asoslashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Milliy madaniy yuksalish masalasi huquqiy hujjatlar, davlat siyosati konsepsiyalari va madaniyatni ijtimoiy rivojlanishning muhim omili sifatida talqin qiluvchi ilmiy qarashlar kesishmasida o‘rganilishi lozim. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son qarori bilan tasdiqlangan konsepsiyada milliy madaniyat va san’atni rivojlantirish mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq jarayon sifatida qaraladi. Bu yondashuv madaniyatni faqat ma’naviy soha doirasida emas, balki jamiyat hayoti sifati, ijodkorlik va fuqarolarning ijtimoiy faolligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omil sifatida tahlil qilish imkonini beradi [3; Konsepsiyaning 1-2-bandlari].

2020-yil 26-maydagi PF-6000-son Farmonda milliy madaniyatni rivojlantirish bilan bog‘liq ayrim tizimli muammolar ham qayd etilgan. Jumladan, sohada zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash, yosh ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash va olis hududlarda madaniy xizmatlarni yaxshilash masalalari dolzarb vazifalar sifatida ko‘rsatilgan [2; Farmonning kirish qismi va 1-ilovasi]. Ushbu holat madaniy siyosatni baholashda faqat tashkil etilgan tadbirlar yoki ajratilgan mablag‘larni emas, balki ularning aholining madaniy hayotidagi real natijalarini ham hisobga olish kerakligini ko‘rsatadi.

2021-yil 20-yanvarda qabul qilingan O‘RQ-668-son “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonun madaniy faoliyat hamda madaniyat tashkilotlari faoliyatiga oid munosabatlarni huquqiy tartibga soladi [4; Qonunning 1-moddasi]. Mazkur hujjat madaniyat tashkilotlarining faoliyatini, madaniy tadbirlarni tashkil etish va aholining madaniy hayotdagi ishtirokini huquqiy jihatdan o‘rganish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Davlat rahbari Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 19-yanvardagi ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini takomillashtirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishda bildirgan quyidagi fikri milliy madaniy yuksalishning g‘oyaviy asoslarini ochib beradi: “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir” [5; 19.01.2021-yildagi rasmiy elektron xabar]. Prezident ushbu fikrni yangi O‘zbekistonni barpo etishda kuchli iqtisodiyot bilan bir qatorda ajdodlar merosi va milliy qadriyatlarga tayangan kuchli ma’naviyat ham zarurligi bilan izohlagan. Mazkur qarash madaniy yuksalishni iqtisodiy rivojlanishga qarama-qarshi qo‘yish emas, balki moddiy taraqqiyot va ma’naviy rivojlanishning o‘zaro to‘ldiruvchi xususiyatini e’tirof etish zarurligini anglatadi.

2026-yil 2-iyunda Prezident rasmiy saytida e’lon qilingan madaniyat, san’at va adabiyot sohalarini yanada rivojlantirishga doir Farmonda ijodiy birlashmalarni tashkil etish, iste’dodlarni

aniqlash, “Ijodga investitsiya” davlat maqsadli jamg‘armasini yo‘lga qo‘yish, nodavlat teatrlarni qo‘llab-quvvatlash, madaniy tadbirlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va madaniyat ta’limini takomillashtirishga oid mexanizmlar belgilangan [6; 2–35-bandlar]. Bu tashabbuslar madaniy siyosatda ijodkorni qo‘llab-quvvatlash, davlat va nodavlat sektor hamkorligini kengaytirish hamda madaniyat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirishga e’tibor kuchayayotganini ko‘rsatadi.

Mavjud hujjatlar va rasmiy tashabbillar tahlilidan kelib chiqib, tadqiqotning muhim vazifasi normativ-huquqiy asoslarni sanab o‘tish bilan cheklanmasdan, ularning o‘zaro aloqasini va uzoq muddatli natijaga erishish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Shu maqsadda maqolada tizimli tahlil, qiyosiy-huquqiy tahlil, g‘oyaviy-konseptual umumlashtirish hamda istiqbolli yo‘nalishlarni modellashtirish usullaridan foydalanildi. Tahlilning asosiy mezoni - madaniyatni tarixiy xotira, milliy o‘zlik, ijodiy faoliyat va zamonaviy ijtimoiy taraqqiyot bilan bog‘liq yaxlit hodisa sifatida talqin qilishdir.

Natijalar va muhokama

Milliy madaniy yuksalish konsepsiyasining istiqbolli yo‘nalishlari. Milliy madaniy yuksalishning istiqbolini belgilashda, avvalo, “madaniyatni saqlash”, “madaniyatni rivojlantirish” va “madaniy yuksalish” tushunchalarining mazmunini farqlash lozim. Madaniyatni saqlash tarixiy va madaniy qadriyatlarning davomiyligini ta’minlashga qaratilgan bo‘lsa, uni rivojlantirish mavjud imkoniyatlarni kengaytirish, yangi ijodiy shakllarni yuzaga chiqarish va madaniy faoliyatni zamon talablariga moslashtirishni anglatadi. Madaniy yuksalish esa ushbu ikki jarayon bilan birga, milliy madaniyatning jamiyat hayotiga ta’siri, fuqarolarning madaniy faolligi, ijodiy salohiyat va xalqaro muloqot imkoniyatlarining sifat jihatidan ortishini ham qamrab oladi.

Fikrimizcha, milliy madaniy yuksalish konsepsiyasining istiqboli quyidagi besh yo‘nalishning uyg‘unligiga bog‘liq:

– tarixiy-madaniy xotirani avlodlarga yetkazish;

– milliy o‘zlik va qadriyatlarni zamonaviy ijtimoiy hayot bilan bog‘lash;

– ijodiy salohiyat va madaniy innovatsiyalarni rag‘batlantirish;

– hududlar va ijtimoiy guruhlar o‘rtasida madaniy imkoniyatlar tengligini kengaytirish;

– milliy madaniyatning xalqaro madaniy muloqotdagi ishtirokini kuchaytirish.

Bu yo‘nalishlar bir-biridan ajralgan holda emas, yagona rivojlanish tizimining o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlari sifatida amalga oshirilishi lozim.

Birinchi istiqbolli yo‘nalish-tarixiy-madaniy xotirani zamonaviy avlodning faol ijtimoiy tajribasiga aylantirish. Tarixiy obidalarni muhofaza qilish, muzeylar faoliyatini takomillashtirish, arxiv va qo‘lyozmalarni o‘rganish muhim bo‘lsa-da, madaniy yuksalishning natijasi faqat meros obyektlarining jismoniy saqlanishi bilan o‘lchanmasligi kerak. Ushbu merosning mazmuni ta’lim,

ilmiy tadqiqot, ommaviy axborot vositalari, raqamli platformalar va madaniy turizm orqali jamiyatga qay darajada yetkazilayotgani ham hisobga olinishi zarur. Shu bois merosni muhofaza qilish siyosati “saqlash-o‘rganish-talqin qilish-avlodlarga yetkazish” uzviyligi asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

Ikkinchi yo‘nalish-milliy o‘zlikni zamonaviy madaniy hayot bilan uyg‘unlashtirish. Milliy o‘zlikni faqat tarixiy ramzlar yoki an’anaviy marosimlar majmui sifatida talqin qilish uning bugungi ijtimoiy vazifalarini toraytiradi. Milliy madaniyat jamiyatning tarixiy tajribasini anglash bilan birga, zamonaviy ilm-fan, texnologiya, ijodiy fikrlash va ochiq madaniy muloqot bilan hamohang rivojlanishi kerak. Bunda milliy qadriyatlarning mazmunini o‘zgartirmasdan takrorlash emas, ularning insonparvarlik, adolat, hamjihatlik, mehnatsevarlik va bilimga intilish kabi jihatlarini zamonaviy hayot sharoitida ijodiy davom ettirish muhimdir.

Uchinchi yo‘nalish-ijodiy salohiyatni rivojlantirish va madaniyat sohasida innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash. 2026-yil 2-iyundagi Farmonda ijodiy birlashmalarni tashkil etish, yosh iste’dodlarni aniqlash va rivojlantirish, “Ijodga investitsiya” davlat maqsadli jamg‘armasini tuzish, nodavlat teatrlar faoliyatini rag‘batlantirish hamda ijodkorlarning ijtimoiy sharoitlarini yaxshilashga doir mexanizmlar belgilangan [6; 2-24-bandlar]. Ushbu chora-tadbirlarning konseptual ahamiyati shundaki, madaniyat endilikda faqat tayyor san’at mahsulotlarini namoyish etish sohasi emas, balki yangi asarlar, ijodiy jamoalar, mustaqil loyihalar va innovatsion tashabbuslar yuzaga keladigan muhit sifatida ham qaralmoqda.

Biroq ushbu yo‘nalishning uzoq muddatli samarasi ajratilgan mablag‘ yoki tashkil etilgan birlashmalar soni bilangina belgilanmaydi. Moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning ochiqligi, tanlov mezonlarining shaffofligi, ijodiy erkinlik, loyihalarning jamoatchilik uchun ahamiyati va yaratilgan asarlarning uzoq muddatli madaniy qiymati ham baholanishi lozim. Shu sababli ijodiy loyihalarni moliyalashtirishda natijadorlik bilan bir qatorda, turli hududlar, yosh guruhlari va madaniy yo‘nalishlar vakillarining ishtirokini ta’minlash ham muhim mezon bo‘lishi kerak.

To‘rtinchi yo‘nalish-madaniy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlaridagi hududiy va ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish. Poytaxt va yirik shaharlardagi madaniy infratuzilma bilan chekka hududlardagi imkoniyatlar bir xil emasligi madaniy siyosatning samaradorligiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu jihatdan 2026-yilgi Farmonda olis hududlarda namunali mahalla kutubxonalarini tashkil etish, ularni raqamlashtirish, maktablarda san’at yo‘nalishlarini rivojlantirish va aholining teatr, kino hamda konsertlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar alohida ahamiyatga ega [6; 24, 29, 31-33-bandlar].

Mazkur tashabbillar madaniyatni aholining kundalik hayotiga yaqinlashtirishga xizmat qilishi mumkin. Biroq bunday mexanizmlarning samarasi kutubxona yoki madaniyat muassasasining mavjudligi bilangina belgilanmasligi lozim. Muassasalardan foydalanish darajasi,

aholining yosh va ijtimoiy tarkibi, dasturlarning mazmuni, mahalliy ijodkorlarning ishtiroki va xizmatlarning uzluksizligi muntazam tahlil qilinishi zarur. Madaniy siyosatning hududiy samaradorligi aynan shu ko‘rsatkichlar orqali aniqlanishi mumkin.

Beshinchi yo‘nalish-milliy madaniyatning xalqaro madaniy muloqotdagi ishtirokini kuchaytirish. O‘zbekistonning tarixiy-madaniy merosi, maqom va baxshichilik san’ati, hunarmandchilik, milliy adabiyot va zamonaviy ijod namunalari xalqaro madaniy aloqalar uchun muhim imkoniyat yaratadi. Biroq xalqaro targ‘ibot faqat festival va ko‘rgazmalar tashkil etish bilan cheklanmasligi kerak. Milliy asarlarni xorijiy tillarga sifatli tarjima qilish, xalqaro ilmiy hamkorlik, raqamli madaniy mahsulotlar yaratish, muzeylararo hamkorlik va ijodkorlarning professional almashinuvini rivojlantirish ham ushbu jarayonning tarkibiy qismlaridir.

Bu jihatdan madaniy diplomatiya milliy madaniyatni tashqi auditoriyaga tanishtirish vositasigina emas, balki o‘zaro tushunish va hamkorlikni mustahkamlovchi mexanizm sifatida qaralishi kerak. Xalqaro maydondagi natijani tadbirlar soni bilan cheklamasdan, tarjima qilingan asarlarning tarqalishi, qo‘shma loyihalarning davomiyligi, xalqaro ilmiy va ijodiy hamkorlikning barqarorligi hamda O‘zbekiston madaniyati haqidagi bilimlarning kengayishi orqali baholash maqsadga muvofiq.

Davlat siyosati va milliy madaniy yuksalishning g‘oyaviy asoslari. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 19-yanvardagi yig‘ilishda bildirgan “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir” degan fikri madaniy yuksalishning g‘oyaviy mazmunini izohlashda muhim ahamiyatga ega [5; 19.01.2021-yildagi rasmiy elektron xabar]. Ushbu fikrda iqtisodiy va ma’naviy rivojlanish bir-biriga zid hodisalar sifatida emas, balki jamiyat taraqqiyotining o‘zaro bog‘liq tayanchlari sifatida talqin qilinadi. Shundan kelib chiqib, milliy madaniyatni qo‘llab-quvvatlashni faqat xarajat talab qiladigan soha deb baholash to‘g‘ri emas; u inson kapitali, ijodkorlik, ijtimoiy hamjihatlik va mamlakatning xalqaro madaniy nufuziga ta’sir ko‘rsatuvchi omil hamdir.

Konstitutsiyaning 61-moddasi madaniy merosni asrashning davlat va fuqarolar zimmasidagi mas’uliyatini belgilasa, O‘RQ-668-son Qonun madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamlaydi. PQ-4038-son qaror va PF-6000-son Farmon esa milliy madaniyatni rivojlantirishning konseptual hamda tashkiliy yo‘nalishlarini belgilashga xizmat qiladi. 2026-yilgi yangi tashabbuslar ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash, xususiy sektor ishtirokini kengaytirish va aholining madaniy hayotdagi ishtirokini kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar bilan ushbu siyosatni yanada kengaytiradi.

Ushbu hujjatlarning umumiy g‘oyaviy yo‘nalishi milliy madaniyatni bir vaqtning o‘zida uchta vazifani bajaradigan tizim sifatida talqin qilish imkonini beradi. Birinchidan, u tarixiy xotira va milliy o‘zlikning davomiyligini ta’minlaydi. Ikkinchidan, ijodkorlik, ta’lim va madaniy ishtirok

orqali jamiyatning ichki rivojlanishiga xizmat qiladi. Uchinchidan, xalqaro madaniy muloqot va hamkorlik orqali mamlakatning madaniy salohiyatini namoyon etadi. Ushbu uch vazifa uyg‘unlashgan taqdirdagina madaniy siyosat uzoq muddatli va barqaror natijalarni ta’minlashi mumkin.

Milliy madaniy yuksalish konsepsiyasini takomillashtirish mexanizmlari. Milliy madaniy yuksalish konsepsiyasini takomillashtirishda normativ-huquqiy hujjatlarning mavjudligi bilan bir qatorda, ularning ijrosini muvofiqlashtirish, natijalarni baholash va jamoatchilik ishtirokini ta’minlash mexanizmlarini ham rivojlantirish zarur. Fikrimizcha, bu borada o‘zaro bog‘liq olti mexanizmni shakllantirish maqsadga muvofiq.

Birinchi mexanizm-yagona strategik muvofiqlashtirish. Milliy madaniyatga oid dastur va loyihalar tarixiy meros, madaniy ta’lim, ijodiy faoliyat, hududiy rivojlanish va xalqaro hamkorlik yo‘nalishlarini qamrab oluvchi umumiy maqsadlar tizimi bilan bog‘lanishi kerak. Bunda vazirlik va idoralar, mahalliy hokimliklar, ta’lim muassasalari, ilmiy tashkilotlar, ijodiy uyushmalar va nodavlat sektor faoliyatining o‘zaro muvofiqligi muhim. Har bir dastur uchun mas’ul ijrochi, amalga oshirish muddati, moliyalashtirish manbasi va kutilayotgan natija aniq belgilanishi lozim.

Ikkinchi mexanizm-natijadorlikni baholashning ko‘p mezonli tizimi. Madaniy siyosat samaradorligini faqat sarflangan mablag‘ yoki o‘tkazilgan tadbirlar soni bilan o‘lchash yetarli emas. Muallif tomonidan quyidagi mezonlar taklif etiladi: madaniy meros obyektlarining saqlanish holati; aholining madaniy tadbirlarda ishtirok etish darajasi; yoshlar va mahalliy ijodkorlar uchun yaratilgan imkoniyatlar; hududlar o‘rtasidagi madaniy xizmatlardan foydalanish tafovuti; raqamli madaniy resurslardan foydalanish ko‘rsatkichi; xalqaro hamkorlikning davomiyligi. Ushbu mezonlar asosida muntazam monitoring va ochiq hisobot tizimini joriy etish davlat siyosatining natijalarini qiyosiy baholash imkonini beradi. Bu mezonlar amaldagi qonunlarda belgilangan tayyor ko‘rsatkichlar sifatida emas, balki muallifning konseptual taklifi sifatida qaralishi lozim.

Uchinchi mexanizm-madaniyat sohasini raqamlashtirish va bilimlarni ochiq tarqatish. Tarixiy hujjatlar, muzey kolleksiyalari, nomoddiy madaniy meros namunalari, og‘zaki tarix materiallari va ilmiy tadqiqotlarni raqamli shaklda saqlash, tavsiflash va ulardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Raqamlashtirish faqat hujjat yoki tasvirni elektron shaklga o‘tkazish bilan cheklanmasligi, balki manbaning kelib chiqishi, tarixiy konteksti, muallifligi va foydalanish shartlarini ham ko‘rsatishi kerak. Bu yondashuv tarixiy xotiraning ishonchli saqlanishi va ilmiy muomalaga kiritilishiga xizmat qiladi.

To‘rtinchi mexanizm-davlat, xususiy sektor va jamoatchilik hamkorligi. Madaniyat sohasida davlat mablag‘lari muhim o‘rin tutadi, biroq ijodiy tashabbuslarning barqaror rivojlanishi uchun homiylik, metsenatlik, xususiy investitsiyalar va ijtimoiy sheriklik imkoniyatlaridan ham

samarali foydalanish zarur. Bunda moliyaviy ko‘mak taqsimotining shaffofligi, tanlov mezonlarining ochiqligi va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish asosiy talablar bo‘lishi kerak. Nodavlat tashkilotlar va mustaqil ijodkorlarning ishtiroki madaniy takliflar xilma-xilligini oshirish bilan birga, madaniyat muassasalarining jamiyat ehtiyojlariga moslashuvchanligini ham kuchaytirishi mumkin.

Beshinchi mexanizm-madaniy ta’lim va avlodlararo uzviylik. Milliy madaniyatni kelajak avlodga yetkazish faqat bayram tadbirlari yoki alohida darslar orqali amalga oshmaydi. Maktab, oliy ta’lim, muzey, kutubxona, mahalla va ijodiy jamoalar o‘rtasida uzluksiz hamkorlikni yo‘lga qo‘yish lozim. Tarixiy obidalar, xalq amaliy san’ati, musiqa, adabiyot va mahalliy og‘zaki tarix namunalari asosida o‘quv loyihalarini tashkil etish yoshlarning milliy madaniyatni tayyor ma’lumot sifatida emas, balki o‘rganish, talqin qilish va ijodiy davom ettirish mumkin bo‘lgan meros sifatida anglashiga yordam beradi.

Oltinchi mexanizm-xalqaro madaniy diplomatiya va madaniy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish. Milliy madaniyatning xalqaro maydondagi ishtiroki uchun tarjima, professional marketing, raqamli platformalar, qo‘shma ko‘rgazmalar, ilmiy nashrlar, xalqaro festivallar va ijodkorlar almashinuvi bir-birini to‘ldirishi kerak. Milliy madaniyatni xalqaro auditoriyaga taqdim etishda uning tarixiy o‘ziga xosligi saqlangan holda, turli madaniyat vakillari tushunishi mumkin bo‘lgan izoh va talqin shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu jarayon milliy o‘zlikni yo‘qotish emas, balki uning mazmunini kengroq madaniy muloqotga olib chiqish vositasi hisoblanadi.

Tadqiqot natijalarini umumlashtirib, milliy madaniy yuksalish konsepsiyasini takomillashtirish uchun quyidagi mualliflik modelini taklif etish mumkin:

Tarixiy-madaniy xotira → milliy o‘zlik va qadriyatlar → ijodiy faollik va madaniy ishtirok → innovatsion madaniy muhit → xalqaro madaniy muloqot → natijalarni baholash va qayta takomillashtirish.

Modelning birinchi bosqichi tarixiy va madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish hamda ishonchli talqin etishni nazarda tutadi.

Ikkinchi bosqichda ushbu merosning mazmuni ta’lim, madaniy muloqot va ijtimoiy tajriba orqali milliy o‘zlikni anglash bilan bog‘lanadi.

Uchinchi bosqich madaniy faoliyatda aholining, ayniqsa yoshlar va hududiy ijodkorlarning faol ishtirokini kuchaytirishni qamrab oladi.

To‘rtinchi bosqichda raqamli texnologiyalar, ijodiy loyihalar va davlat-xususiy hamkorlik vositasida yangicha madaniy mahsulotlar va xizmatlar yaratiladi. Beshinchi bosqich milliy madaniyatning xalqaro muloqotdagi ishtirokini kengaytiradi.

Yakuniy bosqichda esa erishilgan natijalar belgilangan mezonlar asosida baholanib, keyingi dastur va tashabbillarni takomillashtirish uchun foydalaniladi.

Ushbu modelning muhim jihati shundaki, u milliy madaniy yuksalishni bir yo‘nalishdagi chora-tadbirlar bilan cheklamaydi.

– Tarixiy xotira va milliy o‘zlik ijodiy rivojlanish uchun mazmuniy asos yaratadi;

– ijodiy faoliyat va madaniy ishtirok milliy qadriyatlarning zamonaviy hayotdagi davomiyligini ta’minlaydi;

– xalqaro muloqot esa milliy madaniyatning kengroq makonda tanilishi va talqin etilishiga yordam beradi. Natijalarni baholash mexanizmi ushbu jarayonlarning qaysi jihatlari samarali ishlayotganini aniqlash va siyosatni dalillarga tayangan holda takomillashtirish imkonini beradi.

Modelning amaliy ahamiyati madaniy siyosatni faqat tashkiliy tadbirlar bilan emas, balki tarixiy xotira, milliy o‘zlik, ijodiy erkinlik, madaniy ishtirok va xalqaro hamkorlik o‘rtasidagi sababiy-mazmuniy aloqalar orqali tahlil qilishga yordam berishidadir. Biroq modelni amaliyotga joriy etish uchun uning ko‘rsatkichlarini tegishli tashkilotlar bilan kelishish, dastlabki holatni aniqlash va davriy monitoringni yo‘lga qo‘yish zarur.

Xulosa. Tadqiqot natijalari Yangi O‘zbekistonda milliy madaniy yuksalish konsepsiyasining istiqboli tarixiy merosni muhofaza qilish, milliy o‘zlikni mustahkamlash, ijodiy salohiyatni rivojlantirish, madaniy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va xalqaro madaniy muloqotni chuqurlashtirishning o‘zaro uyg‘unligiga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Konstitutsiyaning 61-moddasi, PQ-4038-son qaror, PF-6000-son Farmon, O‘RQ-668-son Qonun hamda 2026-yilgi madaniyat sohasiga oid yangi tashabbuslar milliy madaniyatni rivojlantirishning huquqiy va tashkiliy asoslarini belgilaydi. Ushbu hujjatlarning tahlili madaniy siyosatning saqlash, rivojlantirish, ommalashtirish va xalqaro miqyosda namoyon etish vazifalari o‘zaro bog‘liq ekanini anglash imkonini beradi.

Maqolaning mualliflik xulosasiga ko‘ra, milliy madaniy yuksalishni takomillashtirishning ustuvor vazifasi mavjud tashabbillarni yagona konseptual tizimga birlashtirish va ularning natijadorligini baholash mexanizmlarini rivojlantirishdan iborat. Buning uchun madaniy siyosat dasturlarini umumiy strategik maqsadlar bilan muvofiqlashtirish, natijadorlikning ko‘p mezonli ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish, raqamli madaniy resurslardan foydalanishni kengaytirish, davlat va nodavlat sektor hamkorligini shaffof asosda rivojlantirish, madaniy ta’lim uzviyligini ta’minlash hamda xalqaro madaniy diplomatiyani kuchaytirish zarur.

Maqolada taklif etilgan konseptual modelning ilmiy ahamiyati tarixiy-madaniy xotira, milliy o‘zlik, ijodiy faollik, innovatsion muhit va xalqaro madaniy muloqotni yagona rivojlanish zanjiri doirasida izohlashidadir. Modelning amaliy ahamiyati esa madaniy siyosatni baholashda tadbirlar va mablag‘lar soni bilan cheklanmasdan, aholining madaniy hayotdagi ishtiroki,

merosning avlodlarga yetkazilishi, hududiy imkoniyatlar tengligi va xalqaro hamkorlikning davomiyligi kabi mezonlardan foydalanish zaruratini asoslash bilan belgilanadi.

Shunday qilib, milliy madaniy yuksalish konsepsiyasining istiqboli tarixiy merosga sodiqlik va zamonaviy taraqqiyotga ochiqlikni birlashtiradigan, huquqiy asoslar, ijodiy tashabbuslar, jamoatchilik ishtiroki va natijadorlik monitoringiga tayangan tizimni shakllantirish bilan belgilanadi. Bu yondashuv milliy madaniyatning nafaqat saqlanishi va targ‘ib qilinishiga, balki jamiyatning ma’naviy salohiyati, ijodiy rivojlanishi va xalqaro madaniy nufuzining mustahkamlanishiga ham xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Yangi tahrir. 30.04.2023. 61-modda. - URL: https://lex.uz/docs/-6445145

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son Farmoni. Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. - URL: https://lex.uz/uz/acts/-4829149

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son qarori. O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. - URL: https://lex.uz/uz/acts/-4084926

4. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-yanvardagi O‘RQ-668-son Qonuni. Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida. - URL: https://lex.uz/uz/doc-passport/-5230682

5. Mirziyoyev, Sh. M. Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti, 19.01.2021. - URL: https://president.uz/oz/lists/view/4089

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 2-iyundagi Madaniyat, san’at va adabiyot sohalarini yanada rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar to‘g‘risidagi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. - URL: https://president.uz/oz/lists/view/9275